Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317252

Piter Druker o‘z tadqiqotlarida maqsadni aniq belgilash muhim mezon ekanligi va undan to‘g‘ri foydalanish kerakligini taklif etdi. Piter Druker - maqsad aniq va ravshan berilgan va shakllantirilgan, olish kerak bo‘lgan natijalar esa, uning erishilishi bilan bog‘langan bo‘lsa, barchaga tushunarli bo‘lishi kerak, deydi. Aks holda, o‘ylanganidan ahamiyatli darajada farq qiluvchi natijalar qo‘lga kiritilgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirov D.A. Xodimlarni boshqarish: darslik, nafaqa. - M .: TK Velby, Prospekt nashriyoti, 2006. - 432 p.
2. Bazarov T.Yu. Xodimlarni boshqarish: Talabalar uchun darslik. o'rtacha prof. darslik muassasalar / T.Yu. Bazarov. - 4-nashr, M .: "Akademiya" nashriyot markazi, 2006. - 224 b.

3. Barkov S. A. Xodimlarni boshqarish. - M .: Yurist, 2001, - 451 b.

4. Belyatskiy N. P., Velesko S. E., Piter Reush. Xodimlarni boshqarish. - Minsk: Interpressservice, Ecoperspective, 2002. - 352 b.,

5. Belyatskiy N. P., Reusch P., Susha N. V. Menejer ishining texnikasi. - Minsk: Book House, 2002. - 255 p.

6. Biryuk A.N. Xodimlarni doimiy ishlashga qanday rag'batlantirish kerak // Muammosiz biznes - Xodimlar.-2002.-№5.

TURIZM VA UNING TAXLILI

Nazarova B.O’
Iqtisodiyot bo’yicha falsafa doktori (PhD),dotsent.
Andijon turizm kolleji direktori

Dunyo miqyosida turizm tizimi va uni takomillastirish masalasi murakkab, dolzarb masalalardan biridir. Ushbu muammoni xal qilish jarayonini tashkil etish boyicha qator ilmiy va nazariy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda global o‘zgarishlar bo‘lgan davrda dunyo mamlakatlarida turizm sohasining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi o‘sish sur’ati sezilarli darajada ortib borayotganligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahon ichki turizm xizmatlari bozorini tahliliga ko‘ra 2019 yilda jahon miqyosida turistik faoliyatdan olinayotgan daromadlar hajmi 1478 mlrd. AQSH dollarini, yillik turistik aylanma hajmi esa 4700

Published: 28.03.2024
Cite this article: Nazarova B.O’ (2024). Turizm va uning taxlili. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317252
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

mlrd. AQSH dollaridan iborat bo‘lgan. Turizm sohasining jahon yalpi mahsulotidagi ulushi 10,4 foizni (9,2 trln. AQSH dollari), sohada bandlarning ulushi 10,0 foizni va sohada asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar esa 4,4 foizni tashkil etgan. Jahon iqtisodiyotida pandemiya ta’sirida ichki turizm sohasini mavjud salohiyat doirasida rivojlantirish hamda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda kirish turizmidagi yo‘qotishlarni ichki turizm faoliyatini rivojlantirish orqali kamaytirish, sohaning yalpi ichki mahsulot va aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi xizmatlar hajmidagi ulushini oshirish, hududlarda aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlash hamda soha korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator ilmiy Turizm soxasilar olib borilmoqda. Shu jihatdan ichki turizm faoliyatiga ixtisoslashgan korxonalardagi gorizontal va vertikal boshqaruv tuzilmalarini kengaytirish, xizmatlardan foydalanishni raqamli tizimlar asosida qulaylashtirish, ichki turizm faoliyati tuzilmalarida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishida ilmiy Turizm soxasilar olib borish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

O’zbekistonda turizm xizmatlari sohasini keng qamrovli rivojlantirish borasida tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan sharoitda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.“Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ichki turizm sohasini rivojlantirish mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish va ...2026 yilgacha bo‘lgan davrda sohada band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish, turizm va madaniy meros ob’yektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob’yektlaridan samarali foydalanish” kabi keng ko‘lamli muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosi, mamlakatimizda ichki turizm sohasi faoliyatini boshqarish jarayonida turistik komponentlaridan samarali foydalanish, hududiy iqtisodiyotni rivojlanishiga ta’sir etuvchi samaradorligini baholash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni boshqarish va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar sharoitida sohaning tiklanish strategiyalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq jarayonlarning takomillashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-son «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2017-yil 5-dekabrdagi PF-5273-son «Chorvoq» erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida», 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son «O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son «Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda

mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Turizm va uning tarkibidagi ichki turizm faoliyatini rivojlantirish, soha korxonalari faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish bo’yicha xorijlik U.Martini, Crouch G. I, T.Mixaylik, Akis.S, Athiyaman. A, Мескон М., Альберт М, Shewhart. W, Deming. W, Портер. М, Чесбро. Г, Moore P. G., Тейлор. Ф, P.Druker va MDH davlatlarida ichki turizm faoliyati, uning boshqarish jarayonlarini rivojlantirish, o’ziga xos xususiyatlari hamda uslubiy jihatlari И.В.Зорин, В.А.Квартальнов, Н.В.Пенкина, А.Трубин, Т.Ю.Иваницкая, А.Д.Чудновский, Н.В.Королев, Е.А.Гаврилова, М.А.Жукова, Н.А.Зайцева, С.В.Кибальников, О.Н.Кострюкова, В.И.Кружалин, В.Б.Фридман, Ю.В.Яковец, С.Г.Демченко, Я.Качмарек, М. Б. Биржаков, Т.Е.Карманова, Т.А.Федорова, А.А.Быкова kabi shuningdek O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish va boshqarish jarayonlari bo’yicha М.К.Пардаев, И.С.Тухлиев, Н.Т.Тухлиев, Б.Н.Навруз-зода, Н.С.Ибрагимов, О.Ҳ.Ҳамидов, М.Т.Алиева, М.Т.Алимова, А.А.Эштаев, Б.Ш.Сафаров, А.Т.Мирзаев, А.Н.Норчаев, Ш.Р.Файзиева, Б.Олланазаров kabi olimlarning ilmiy ishlarolib bormoqdalar.

Biroq, ular tomonidan ichki turizm sohasini rejali va tizimli boshqarish, soha faoliyatini hududlar kesimida rivojlantirish, ichki turizm sohasi samaradorligini oshirish, asosiy va yondosh infratuzilma tizimlarini rivojlantirish va soha faoliyatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish kabi masalalar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Turizm soxasi natijalarining ilmiy ahamiyati turizm soxasida ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy taklif hamda tavsiyalarni iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ichki turizm xizmatlari sohasini boshqarishni va respublikamizda turizm industriyasining samarali faoliyat olib borishiga, ichki turizm xizmatlari bozorida soha korxonalari raqobatbardoshligini boshqaruv strategiyalari asosida ta’minlashga qaratilganligi, shuningdek, mamlakatimiz turistik xizmatlari sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishda hamda pandemiya sharoitida ichki turizm faoliyatini rivojlantirish asosida kirish turizmi yo‘nalishidagi yo‘qotishlarni qoplash va sohaning ehtimoliy tiklanish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Ichki turizm xizmatlari bozorida turistik korxonalar faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha olingan turizm soxasilar asosida:

Ichki turizm boshqaruvi asosiy quyi tizimlari va funksiyalarini tasnifiy modelini turistik mahsulotlarini yaratish va uni taqsimlash, sotish asosida ichki turizmni rivojlantirish hamda moliyaviy oqimlarni prognoz qilish va rejalashtirishning quyi tizimlarini hisobga olgan holda takomillashtirilgan taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 apreldagi PQ-232–son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 1-

ilovasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2022 yil 30-noyabr 04-18/7423-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ichki turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tuzilmalarda boshqaruv jarayonlaridagi kompetensiyalarning optimal taqsimlanishi bilan boshqaruv samaradorligini 2,1 % ga ijobiy o‘zgarishiga erishilgan;

Andijon viloyatining Xo‘jaobod tumanidagi Imom ota qishlog‘ini" turizm qishlog‘i"ga aylantirish hamda bu yerda oilaviy mehmon uylarini ko‘paytirish, milliy mahsulotlar, suvenir do‘konlari va umumiy ovqatlanish shoxobchalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda ekoturizm dam olish maskanlarini tashkil etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30-apreldagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo’shimcha chora–tadbirlar to’grisidagi qarorining 1-ilovasini 6-bandini tayyorlashda foydalanilgan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-apreldagi VMQ-204-son “2022-2026 yillarda Andijon viloyati xududlarini kompleks ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 2-ilovasining 6-bolimini 79.2-bandini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2022 yil 30-noyabr 04-18/7423 - sonli ma’lumotnomasi). Natijada Xonobod shahri, Xo‘jaobod tumanidagi Imom ota qishlog‘ini "turizm qishlog‘i"ga aylantirish hamda bu yerda oilaviy mehmon uylarini ko‘paytirish hisobiga ishlab chiqarish hajmi 5 foizli ijobiy samarasini oshirishga ва ichki turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda risklarni baholash aniqligi 12-14 % ga ijobiy o‘zgarishiga erishish imkoni yaratilgan;

pandemiya sharoitida ichki turizmni ustuvor rivojlantiruvchi hududlarni aniqlash matrisasi asosida soha faoliyatini rag‘batlantirish orqali turistik faoliyatning ehtimoliy (tez tiklanish, sekin tiklanish, bosqichma-bosqich tiklanish, tarkibiy o‘zgarishlar orqali tiklanish va ikki marta pasayish bilan tiklanish) tiklanish ssenariylari ishlab chiqilgan taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 apreldagi PQ-232–son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2022 yil 30-noyabr 04-18/7423-sonli ma’lumotnomasi). Natijada kirish turizmi sohasidagi yo‘qotishlarni ichki turizm faoliyatini rivojlantirish orqali qoplash, shu bilan birga turizm sohasining rivojlanish trendlarini tiklash samaradorligini oshirish imkonini bergan.

Xulosa shuki Jahon miqyosida so‘nggi yillarda turizm sohasining rivojlanish tendensiyalari sohaning barqaror rivojlanishi faqatgina kirish turizmi orqaligina ta’minlanmasdan, hududda ichki turizmning alohida turlarini ham ustuvor rivojlantirish orqali amalga oshirish talab etilmoqda. Turizm sohasi, xususan, ichki turizm faoliyatini rivojlantirish tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish, aholi bandligi va real daromadlar darajasini oshirish hamda hududlarni mutanosib rivojlantirish kabi keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarova, B. U. Improving the management system of tourism enterprises through domestic tourism. // Theoretical &Applied Science Philadelphia, USA. ISSN: 2308-4944, Issue 04, Volume 120 published 04.04.2023. 17-21 (5) GIF (0.564), (23) Impact Factor (SJIF 2021: 7.184), http://www.t-science.org/conf/2023/04-2023-4.pdf
2. Назарова Б.У. Ички туризм корхоналарини фаолиятини бошқаришда туристик рискларни бошқариш. // Изд. «Научно-технический журнал машиностроение». №1, 2022 г. -С.280-288.
3. Назарова Б.У. Ички туризм корхоналарида бошқариш жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари. // Ж. «Хоразм Мамун академияси ахборотномаси». – 2022-5/2. С. 80-84.

INCREASING FOREIGN INVESTMENT THROUGH BONDS

Umarova Gulzoda Kodirbekovna
Teacher assistant. “Department special sciences”,
Andijan branch of the Tashkent financial institute,
Andijan, Republic of Uzbekistan**.**

Abstract: the task of any investor is to correctly choose an instrument for investing. In the process of buying bonds, it is important to take into account the prescribed criteria for choosing assets. In addition, do not forget about the classification of the instrument, because it determines both risks and profitability indicators.

Keywords: investors, payments, important, obligation, management activities, financial costs, investments.

Аннотация: задача любого инвестора – правильно выбрать инструмент для инвестирования. В процессе покупки облигаций важно учитывать установленные критерии выбора активов. Кроме того, не забывайте о классификации инструмента, ведь он определяет как риски, так и показатели доходности.

Ключевые слова: инвесторы, платежи, важные, обязательства, управленческая деятельность, финансовые затраты, инвестиции.